

Date: 5th November-2024

**PROFILAKTIKA INSPEKTORLARINING TILANCHILIK
HUQUQBUZARLIKLARINING OLDINI OLISHDAGI O'ZARO HAMKORLIK
XUSUSIYATLARI**

Qutpidinova Parvina Muhiddinovna

O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi

3-o'quv kursi 336-guruh kursanti

Annotatsiya: Ushbu ilmiy maqolada profilaktika inspektorlarining tilanchilik jinoyatlari va huquqbazarliklarining oldini olish borasidagi o'zaro hamkorlik tushunchasi, tilanchilik huquqbazarligining o'ziga xos xususiyatlari, uning huquqiy asoslari hamda ushbu sohadagi muammo va kamchiliklar, ularning yechimlari yoritib o'tilgan.

Abstract: In this scientific article, the concept of mutual cooperation of preventive inspectors in the prevention of begging crimes and offenses, the specific characteristics of the offense of begging, its legal basis, as well as problems and shortcomings in this area, and their solutions, are highlighted.

Kalit so'zlar: Huquqbazarliklar profilaktikasi, tilanchilik huquqbazarligi, jamoat joylari, pul yoko moddiy qimmatliklar, chora-tadbirlar.

Key words: Prevention of crimes, crime of begging, public places, monetary or material values, measures.

O'zbekiston prezidenti Shavkat Mirziyoyev 9 yanvar kuni tilanchilik uchun ma'muriy va jinoiy javobgarlikni joriy etishni ko'zda tutuvchi qonunni imzolangan. Hujjat Oliy Majlis Qonunchilik palatasi tomonidan 30 noyabrda qabul qilinib, Senat tomonidan 13 dekabrda tasdiqlangan edi.

Aeroportlarda, vokzallarda, xiyobonlarda, istirohat bog'larida, bozorlarda va savdo majmualari hududlarida, shuningdek ularga tutash hududlarda, avtomototransport vositalarini vaqtincha saqlash joylarida, ko'chalarda, stadionlarda, bekatlarda, yo'llarning qatnov qismida, moddiy madaniy meros ob'ektlari joylashgan hududlarda, jamoat transportining barcha turlarida va boshqa jamoat joylarida pul, oziq-ovqat mahsulotlari va boshqa moddiy qimmatliklar berishni faol tarzda so'rab, tilanchilik bilan shug'ullanish tilanchilik sifatida belgilangan edi.

Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning yangi 188-3-moddasiga muvofiq, bazaviy hisoblash miqdorining bir baravaridan uch baravarigacha miqdorda jarima solishga yoki o'n besh sutkagacha muddatga ma'muriy qamoqqa olishga sabab bo'ladi.

Voyaga yetmagan shaxslarni, keksa yoshdagi shaxslarni, ruhiy kasalliklari, nogironligi bo'lgan shaxslarni va boshqa shaxslarni tilanchilik qilishga jalb etish, shuningdek shaxslarga alkogolli ichimliklarni yoxud giyohvandlik moddalari yoki psixotrop moddalar bo'lmagan, lekin shaxsning aql-idrokiga ta'sir ko'rsatuvchi moddalarni majburan iste'mol qildirgan holda ularni tilanchilik qilishga jalb etish esa bazaviy hisoblash miqdorining besh baravaridan o'n baravarigacha miqdorda jarima solishga yoki o'n besh sutkagacha muddatga ma'muriy qamoqqa olishga sabab bo'ladi.

Date: 5th November-2024

Jinoyat kodeksiga kiritilgan yangi 127–1-modda tilanchilik ma'muriy jazo qo'llanilganidan keyin sodir etilgan bo'lsa, 240 soatgacha majburiy jamoat ishlari yoki 2 yilgacha axloq tuzatish ishlari yoxud 1 yilgacha ozodlikni cheklash yoki 1 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanishini ko'zda tutadi.

Yuqorida sanab o'tilgan shaxslarni jalg etgan holda tilanchilik ma'muriy jazo qo'llanilganidan keyin sodir etilgan bo'lsa, bazaviy hisoblash miqdorining 100 baravaridan 200 baravarigacha miqdorda jarima yoki 360 soatgacha majburiy jamoat ishlari yoxud 2 yilgacha axloq tuzatish ishlari yoki 1 yildan 3 yilgacha ozodlikni cheklash yoki 3 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Tilanchilikka jalg etish takroran yoki xavfli retsidivist tomonidan, uyushgan guruh tomonidan yoki uning manfaatlarini ko'zlab, boshqa shaxsni giyohvandlik vositalarini, ularning analoglarini yoki psixotrop moddalarni iste'mol qilishga majburlagan holda sodir etilgan bo'lsa, 3 yildan 5 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Odatda tilanchi deganda ko'z oldimizga jismoniy jihatdan zaif, ko'rinishi abgor: yuz-qo'li kir, kiyimlari yirtiq-yamoq odam keladi. Ammo bugun tilanchilar ham, ularning qiyofasi ham o'zgarayotgandek, nazarmizda. Bu qadim «kasb» katta-kichik urushlar, parokandalik, qurg'oqchiliklardan qolgan asorat bo'lsa-da, hozirgi tinch, farovon zamonda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan.

Odam gavjum joylar, jamoat transporti, masjidlar yonida tilanchilikni «kasb» qilgan to'rt muchasi sog'lom, ishlasa o'zi tugul katta ro'zg'orni tebratish qobiliyatiga ega erkaklar, oddiy tikish-bichish hunari orqali yoki biror joyda farroshlik qilib bo'lsa-da kundalik ehtiyojini qoplashi mumkin bo'lgan ayollarning borligi achinarli holat.

Ayniqsa, yosh bolasi bilan chiqqan ayollar nuri diydasining tarbiyasi buzulishiga, uning kelajak hayotini xavf-hatarda qolishiga sababchi ham bo'ladi. Natijada bolalarda yolg'onchilik, kishilar oldida o'zini nochor sezish, birovning hisobiga yashash kabi illatlar shakllanishiga, nosog'lom muhit ta'sirida ulg'ayib, eti qotadi.

— Tilanchilik qilish boquvchisi bo'lмаган, kishilaridan biror narsa so'rashdan boshqa ish qo'lidan kelmaydigan kishilar uchun halol, ammo uning ham chegarasi bor, — deydi O'zbekiston musulmonlari idorasi raisi birinchi o'rinnbosari Homidjon domla Ishmatbekov. — Ya'ni bu me'yor — bir kunlik yeyish-ichish ehtiyojini topgunga qadar bo'lgan vaqt. Undan ortig'i harom sanaladi. Bunda hech qachon ertanikini ham birato'la bugun topib qo'yay, deyilmaydi. Keyingi kun Xudo kuch-quvvat bersa yoki biror yo'l ko'rsatsa, albatta, ishlashi, mabodo hech ishi o'xshamay, boshqa yo'li qolmasa — yana kundalik ehtiyoji uchun tilanchilikka chiqishi mumkin. Miskin bo'lib, tirikchiligidan shundan, deya shu ishga mukkasidan ketish firibgarlikdir. Bundaylarning yuzi ikki dunyoda ham shuvut holatda bo'ladi. Buni bila turib qilish esa o'zini ochiq-oydin xorlikka mahkum etishdir. O'zini mayib-majruh holatda ko'rsatib, gadoy, tilanchi qiyofasiga solish ham ayni tovlamachilikning bir turi. Dinimiz bundan qat'iy qaytaradi.

Qayd etilishicha, ayni paytda jamoat xavfsizligi sohasini raqamlashtirishda inson omilini minimallashtirish maqsadida ichki ishlar organlari tomonidan ijtimoiy profilaktika tizimini nazarda tutuvchi «E-ijtimoiy profilaktika» axborot tizimi faoliyati yo'lga qo'yilgan.

Date: 5thNovember-2024

Hukumat qarori loyihasida «Obod va xavfsiz mahalla» tamoyili asosida mahallalarda ijtimoiy profilaktika tizimini takomillashtirish orqali xavfsiz muhitni yaratish bo'yicha qator chora-tadbirlar belgilanmoqda.

Jumladan, aholini har qanday tahdidlardan kafolatli himoya qilish hamda oilada ijtimoiy-ma'naviy muhitni sog'lomlashtirishga qaratilgan «Obod va xavfsiz mahalla» tamoyili asosida mahallalarda ijtimoiy profilaktikani amalga oshirish tartibi to'g'risidagi nizom tasdiqlanadi.

«Obod va xavfsiz mahalla» tamoyili asosida mahallalarda ijtimoiy profilaktikani amalga oshirish tartibi to'g'risidagi nizomga muvofiq mahallalarda xavfsiz muhitni yaratish maqsadida ichki ishlar organi tayanch punkti (huquq-tartibot maskani) profilaktika (katta) inspektori, mahalla raisi, aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha hokim yordamchisi, mahalladagi xotin-qizlar faoli va mahalladagi yoshlar yetakchisining huquqbuzarlik sodir etish va huquqbuzarlikdan jabrlanish ehtimoli yuqori bo'lgan shaxslarga ijtimoiy profilaktika choralarini qo'llash bo'yicha kunlik yakka tartibda manzilli ishslash tartibini joriy etadilar.

Xulosa o'rnida profilaktika inspektorlari tilanchilik jinoyatlarini va huquzbuzarligini oldini olishda jamoat joylarida huquqbuzarliklarning umumiy, maxsus, yakka tartibdagi profilaktika chora tadbirlarini amalga oshirishi, bundan tashqari hamkorlik asosida ijtimoiy profilaktikani ham tashkil etishi muhim o'rinn tutadi.